
RESPUBLIKA ISHCHI GURUHI FARG'ONA TUMANIDA O'RGANISH OLIB BORMOQDA

Ayni kunlarda Farg'ona tumanida aholi muammolari va ularni hal etish chora-tadbirlari, fuqarolar bandligini ta'minlash, oilalarni mustahkamlash, ma'naviyat va ma'rifat, yoshlar tarbiyasi kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan ishlar Respublika ishchi guruhi tomonidan o'rganilmoqda.

Xususan, tuman hokimligi majlislar zalida, hudud bo'ylab amalga oshirilishi lozim bo'lgan o'rganishlar kelishib olindi.

Asosiy maqsad xalq roziligini ta'minlashga qaratilgan o'rganishlarda aniqlangan muammolarning ayrimlari joyning o'zida yechim topayotgan bo'lsa, qolganlarini hal etish yuzasidan aniq muddat va mas'ullar belgilanib, ijrosi nazoratga olinmoqda.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Instagram](#) | [Youtube](#) | [Telegram](#)

2024-01-25 09:24:20